

"Buyruq va istak gaplar. His-hayajon gaplar" va ularning tahlili yuzasidan amaliy mashg'ulot mavzusida ochiq dars

SamDCHTI akademik litseyida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlar, ochiq dars va mashg'ulotlarning muntazam ravishda o'tkazib kelinishi o'quvchilarning bilim ko'nikmalarini yanada ilg'or va samarali darajada rivojlantiradi.

Xususan 27-noyabr kuni SamDCHTI akademik litseyi ona tili-adabiyot fan o'qituvchisi Tillaboyeva Zilola boshchiligida 203-guruh o'quvchilar ishtirokida "Buyruq va istak gaplar. His-hayajon gaplar" va ularning tahlili yuzasidan amaliy mashg'ulot mavzusida ochiq dars o'tkazildi.

Fan doirasida o'tkazilgan ushbu ochiq darsda "Musiqali shlyapa", "Besh tashla" "Tez va chaqqon bo'l", "Soyabon", "Bilmasxon tashrifi" kabi interfaol metodlardan foydalanildi va darsda faol qatnashgan o'quvchilar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

















SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati